Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 94

SAIDRIZO ALIZODANING JADIDCHILIKDAGI O‘RNI VA ILMIY MEROSI

Izzatillo Ikromjon o‘g‘li Toxirjonov*
Toshkent davlat sharqshunoslik universtiteti Sharq svilizatsiyasi va falsafa fakulteti Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi kafedrasi 2-bosqich talabasi
✉ takhirjanovizzatillo@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Saidrizo Alizodaning hayoti va faoliyati, uning jadidchilik harakati bilan bog‘liq qarashlari hamda ma’rifatparvarlik faoliyati yoritiladi. Shuningdek, maqolada Alizodaning ta’lim, milliy matbuot, tarjimonlik va tilshunoslik sohalaridagi faoliyatiga e’tibor qaratilib, uning qatag‘on qilinishi hamda hayotining so‘nggi davri haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar

Saidrizo Alizoda, jadidchilik, ma’rifatparvarlik, ta’lim, milliy matbuot, tarjimonlik, tilshunoslik, qatag‘on, ilmiy meros.

DOI: 10.5281/zenodo.23279520

KIRISH

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida muhim o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Bu davrda jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qilayotgan jaholat, savodsizlik va eski ta’lim usullarini o‘zgartirish masalalari ziyolilar oldidagi asosiy vazifalardan biriga aylandi. Ayniqsa, jadidchilik harakati vakillari xalqni ilm-ma’rifatga chorlash, maktab ta’limini yangilash, milliy matbuotni rivojlantirish va zamonaviy bilimlarni keng yoyishga katta e’tibor berdilar. Jadidchilik faqatgina maktab ochish yoki yangi darsliklar yaratish bilan cheklanmagan. Bu harakat vakillari jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy muammolarga ham munosabat bildirganlar. Ularning maqolalari, publitsistik chiqishlari, badiiy asarlari va tarjimalarida xalqning kelajagi, millatning o‘zligini saqlab qolish, ta’limni rivojlantirish kabi masalalar keng yoritilgan. Ana shunday serqirra faoliyat olib borgan ziyolilardan biri Saidrizo Alizodadir.

Saidrizo Alizoda Samarqanddagi ma’rifiy muhitda shakllangan bo‘lib, u pedagog, jurnalist, muharrir, tarjimon va tilshunos sifatida faoliyat yuritgan. Uning hayoti XX asr boshlaridagi Turkiston tarixining murakkab va ziddiyatli jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Saidrizo Alizoda 1887-yil 15-fevralda Samarqandda tug‘ilgan. Yoshligidan ilmga qiziqishi uning keyingi faoliyatida ham yaqqol ko‘rinadi. U o‘z ustida mustaqil ishlagan va bir necha xorijiy tillarni o‘rgangan. Saidrizo Alizodaning shaxs sifatida shakllanishida Samarqanddagi ilmiy-ma’rifiy muhit muhim o‘rin tutgan. U yoshligidan ta’lim olishga intilgan va yangi usul maktabida tahsil olgan. Manbalarda uning Samarqandning Chorraha dahasida Abulqosim Alganjiy ochgan jadid maktabida o‘qigani, keyinchalik shu ustoz qo‘lida madrasa tahsilini davom ettirgani qayd etilgan.

Alizodaning hayotida matbuot bilan bog‘liq faoliyat ham muhim ahamiyat kasb etgan. 1905–1907-yillarda u Dimurovlar bosmaxonasida harf teruvchi bo‘lib ishlagan[1]. Bosmaxonadagi faoliyati uning matbuot bilan yaqindan tanishishiga va keyinchalik jurnalistika sohasida faol ishlashiga imkon bergan.

Yoshligidayoq u ilmiy va ma’rifiy mazmundagi risolalar yozishga kirishgan. Manbalarda 1904-yilda

[1]Shadmanova S. Turkiston tarixi – matbuot ko‘zgusida. – T.: Yangi nashr. 2011. – B. 25.

“Nizomnoma”, 1906-yilda esa “Risolat ulittihodiya” kabi asarlar yaratgani ko‘rsatiladi[2]. Shu davrning o‘zida “Ilmi hisob” darsligini ham tuzgan. Bu holat Alizodaning yoshligidan ilm va ta’lim masalalariga jiddiy e’tibor berganini ko‘rsatadi. Uning maqolalari turli taxalluslar bilan chop etilgan. Jumladan, “Bahlul”, “Zambur”, “Korgar”, “Mulla Jambul”, “Ranjbar”, “Bog‘ishamoliy” kabi taxalluslardan foydalangan[3]. Keyingi faoliyatida ham uning tanqidiy maqola va felyetonlari turli taxalluslar ostida nashr etilgan.

Saidrizo Alizodaning faoliyatini jadidchilik harakatidan alohida tasavvur qilish qiyin. Chunki uning ta’lim, matbuot va ma’rifat sohasidagi ishlari o‘sha davr jadid ziyolilarining asosiy maqsadlari bilan chambarchas bog‘liq edi. Jadidlar eski ta’lim tizimining imkoniyatlari cheklanganini ko‘rsatib, maktablarda yangi usuldan foydalanish, bolalarga diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni ham o‘rgatish zarurligini ilgari surdilar.

Alizoda ham shu yo‘nalishda faoliyat olib bordi. U maktablar uchun darsliklar yaratdi va o‘quvchilarga tushunarli bo‘lgan ta’lim materiallarini tayyorlashga harakat qildi. Manbalarda Alizodaning Samarqandda tojik tilida ta’lim beruvchi maktab ochgani va kambag‘al oilalarning farzandlariga ta’lim bergani qayd etiladi. U o‘quvchilar uchun “Sarfi arab”, “Turkiy alifbo”, “Tarix”, “Jug‘rofiya”, “Riyoziyot”, “Xandasa”, “Tabiat”, “Din vojiblari”, “Nizomnoma”, “Badan tarbiyasi” va “Ilmi fazo” kabi darsliklarni yozgan[4]. Bu darsliklarning mazmuni ham Alizodaning ta’limga bo‘lgan qarashlarini tushunishda muhimdir. U boshlang‘ich ta’limni faqat savod chiqarish bilan cheklab qo‘ymasdan, o‘quvchilarga matematika, geografiya, tarix va tabiiy fanlar bo‘yicha ham bilim berishni ko‘zlagan.

Bundan tashqari, Alizoda o‘zbek maktablari uchun “Birinchi yil” nomli alifbo ham yozgan va uni Samarqanddagi yangi usul maktablariga bepul tarqatgan. Shaharda yashovchi ruslar uchun kechki kurslar tashkil etib, ularga o‘zbek va fors-tojik tillarini o‘rgatgani ham manbalarda qayd etilgan[5]. 1906-yilda yaratilgan “Ilmi hisob” darsligi uning dastlabki pedagogik ishlaridan biri hisoblanadi. Keyinchalik o‘zbek va tojik maktablari uchun alifbo va boshqa o‘quv qo‘llanmalarini yaratishi uning ta’lim sohasidagi faoliyatini yanada kengaytirgan. Alizodaning ta’lim borasidagi qarashlarini uning boshqa ziyolilar bilan hamkorligi orqali ham ko‘rish mumkin. U Eron va Afg‘onistondan Turkistonga kelgan ziyolilar bilan aloqalar olib borgan. Xususan, Eronning maorif xodimi Malik Bahor bilan yangi usul maktablarini tashkil etish masalalari yuzasidan yozishmalar olib borgani haqida ma’lumot mavjud. Bu aloqalar Turkiston jadidlarining faqat mahalliy doirada qolib ketmaganini ko‘rsatadi. O‘sha davr ziyolilari boshqa musulmon mamlakatlaridagi ta’lim jarayonlari bilan ham qiziqqanlar. Alizodaning Eron va Afg‘oniston ziyolilari bilan aloqalari ham shu jarayonning bir qismi sifatida qaralishi mumkin.

Saidrizo Alizodaning faoliyatida milliy matbuot alohida o‘rin tutadi. U jurnalistika bilan yoshligidan shug‘ullangan va umrining katta qismini matbuot bilan bog‘lagan. U Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan yaqin hamkorlik qilgan. Manbalarda 1913–1915-yillarda Behbudiyning “Oyna” jurnalida faol hamkorlik qilgani ko‘rsatiladi. Shuningdek, “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnali bilan bog‘liq faoliyatida ta’lim masalalarini yoritgan. Alizoda matbuot orqali jamiyatdagi muammolarga munosabat bildirgan. Uning maqolalarida maktab va madrasalardagi ta’limning holati, darsliklarning yetishmasligi va o‘qitish jarayonidagi kamchiliklar haqida fikrlar uchraydi. 1917-yildan “Hurriyat” gazetasida tarjimon va muxbir sifatida ishlagan. 1922-yildan esa “Zarafshon” gazetasida bo‘lim mudiri bo‘lib faoliyat yuritgan. U “Turkiston xabarlari”, “Kambag‘allar o‘qi”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Buxoroi sharif”, “Turon”, “Samarqand ovozi” kabi gazetalarda, shuningdek, “Mashrab” va “Mulla Mushfiqiy” jurnallarida maqolalar e’lon qilgan[6]. Alizodaning publitsistik faoliyatida tanqidiy ruh kuchli bo‘lgan. U turli ijtimoiy muammolarni ko‘tarib chiqish uchun felyeton va maqolalardan foydalangan.

1919-yilda Turkiston hukumati huzurida tojik, eron va afg‘onlarni birlashtirgan Fors bo‘limi tashkil etilgan. Saidrizo Alizoda ushbu bo‘limga rahbar etib tayinlangan. Shu davrda “Sharq mash’ali” nomli haftalik jurnal tashkil etilgan va 1919-yil 7-martda Alizoda uning muharriri etib tayinlangan. Jurnal 4000 nusxada chop

[2]“Oyna” jurnali. 1914 yil, 35-soni.
[3]“Oyna” jurnali. 1914 yil, 35-soni.
[4]Tursunova D. Samarqand jadidchilik maktabi.T.: Navro‘z, 2017. -B.24.
[5]Shadmanova S. Turkiston tarixi – matbuot ko‘zgusida. – T.: Yangi nashr. 2011. – B. 28.
[6]Усмонов И., Давронов Д. Таърихи журналистикаи тоҷик. – Душанбе: Маориф, 1997. – 158 с.

etilib, Turkiston va Kavkazortidan tashqari Afg‘oniston, Eron, Turkiya, Hindiston hamda ayrim arab mamlakatlarida ham tarqalgan. “Sharq mash’ali” sahifalarida Alizodaning maqola va she’rlari ham e’lon qilingan. Ularda Turkiston aholisining erkin va farovon hayotga bo‘lgan intilishlari ifodalangan. Alizodaning publitsistikasida Vatan masalasi muhim o‘rin egallaydi. “Turkiston – bizning vatanimiz” singari maqolalarida u Vatanga munosabat, milliy o‘zlik va xalqning kelajagi haqida fikr yuritgan. Uning publitsistikasi orqali o‘sha davrdagi ijtimoiy va siyosiy muhitni ham ma’lum darajada tasavvur qilish mumkin. Alizodaning qarashlarida vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishlar ham kuzatilgan. Manbalarda u 1917-yil inqilobini dastlab ijobiy kutib olgani, biroq keyinchalik bolsheviklarning siyosati va va’dalariga tanqidiy munosabat bildira boshlagani qayd etiladi. Keyinchalik “Tayoq” jurnalidagi maqolalarida bu boradagi qarashlarini ifodalagan. Bu holat uning siyosiy jarayonlarga bir xil qarash bilan emas, balki davr voqealarini kuzatib, o‘z munosabatini o‘zgartirib borganini ko‘rsatadi.

Saidrizo Alizodaning ilmiy va ijodiy faoliyatida tarjimonlik alohida ahamiyatga ega. U rus, Yevropa, o‘zbek, fors va boshqa adabiy muhitlar o‘rtasidagi aloqalarda tarjima vositasidan foydalangan. Alizoda Aleksandr Pushkinning “Dubrovskiy”, “Kapitan qizi”, “Yevgeniy Onegin” kabi asarlarini, Lev Tolstoyning “Tirilish” romanini, Mopassanning “Do‘ndiq” hikoyasini hamda boshqa asarlarni tojik tiliga tarjima qilgan[7]. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarini ham tojik tiliga o‘girgan. Shuningdek, Alizoda Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Abu Ali ibn Sino, Fuzuliy va Alisher Navoiy asarlarini rus tiliga tarjima qilgani haqida manbalarda ma’lumot beriladi.

Tarjima faoliyatining bunday kengligi Alizodaning turli xalqlar adabiyoti va madaniyati bilan yaxshi tanish bo‘lganini ko‘rsatadi. U tarjima orqali turli tillarda yaratilgan ilmiy va badiiy asarlarning kengroq ommaga yetib borishiga xizmat qilgan. Saidrizo Alizoda bir necha tillarni o‘rganishga katta e’tibor bergan. Manbalarda uning rus, fransuz, arab, italyan, yahudiy, kurd, arman, ingliz va urdu tillarini mustaqil ravishda o‘rganganligi qayd etiladi. Til bilishga bo‘lgan qiziqishi uning ilmiy faoliyatida ham o‘z aksini topgan. Alizoda til o‘rgatish bilan birga, darslik va lug‘atlar yaratish ishlariga ham e’tibor qaratgan ozarbayjonlik mutafakkir Abdulla Shoyiq bilan hamkorlikda “Yangi ozarbayjon alifbosi”ni tayyorlagan. Mazkur alifbo Ozarbayjon maktablarida darslik sifatida foydalanilgan. Alizodaning lug‘atshunoslikdagi eng muhim ishlaridan yana biri 1933–1934-yillarda nashr etilgan ikki jildlik ruscha-tojikcha lug‘atdir. Manbalarda lug‘at 61 ming so‘zdan iborat bo‘lgani, unda kasbiy va ijodiy atamalar, uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari, ilmiy va adabiy terminlar ham o‘rin olgani qayd etiladi [8].

Alizodaning ilmiy-adabiy merosi bir nechta yo‘nalishlarni qamrab oladi. U darsliklar, alifbolar, maqolalar, tarjimalar va lug‘atlar yaratgan. Uning faoliyatida pedagogika, jurnalistika, adabiyot va tilshunoslik bir-biri bilan bog‘langan. Manbalarda Alizodaning “Baxt asri” romani ham mavjudligi qayd etiladi [9]. Bundan tashqari, uning turli mavzulardagi ilmiy-ma’rifiy kitoblari haqida ham ma’lumotlar uchraydi. Nabirasi Farhod Alizodaning ma’lumotlariga ko‘ra, u Afg‘oniston hukmdori Omonulloxon farmoni bilan fors tilida tarix va islom diniga oid bir qator asarlar yozgan. Ular orasida “Asri saodat”, “Murosilot-maktubot”, “Odobi ikrom”, “Tarixi islom”, “Tarixi Turkiston”, “Qonuniyathoi diniy”, “Madaniyati islom”, “Zarurati islom” va “Fan dar borai koinot” kabi nomlar keltiriladi[10]. Ushbu ma’lumotlar manbada Farhod Alizodaning ma’lumotlariga tayanib berilgan.

Saidrizo Alizodaning hayotidagi eng og‘ir davr qatag‘on yillari bilan bog‘liq. XX asrning 30-yillarida Sovet siyosiy repressiyalari ko‘plab ziyolilar va ma’rifatparvarlarning taqdiriga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Alizoda ham bu jarayondan chetda qolmadi. Saidrizo Alizoda 1937-yilda Samarqand davlat universitetida dars berib turgan vaqtida hibsga olinib, josuslikda ayblangan. Dastlab Samarqandda, keyin Toshkentda, undan so‘ng Tobolsk va Vladimir qamoqxonalarida saqlangan. Qamoq yillari uning hayotining eng og‘ir davri bo‘lgan. Shunga qaramay, manbalarda Alizodaning qamoqda ham yozish bilan shug‘ullangani haqida ma’lumot bor. Uning vafotidan keyin kamerasidan arab yozuvida yozilgan qo‘lyozmalar topilgan. Ayrim yozuvlar non bilan yopishtirilgan mato bo‘laklariga yozilganligi qayd etiladi. Saidrizo Alizoda 1945-yil 24-dekabrda Vladimir qamoqxonasida sil

[7] Said Z. O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870-1927). – Toshkent Samarqand: O‘zbekiston, 1927. – B. 36.
[8] Said Z. O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870-1927). – Toshkent Samarqand: O‘zbekiston, 1927. – B. 40.
[9] Усмонов И., Давронов Д. Таърихи журналистикаи тоҷик. – Душанбе: Маориф, 1997. – 160 с.
[10] Sayid Rizo Alizoda. “Turkiston-bizning Vatanimiz”// “Sho‘lai inqilob” jurnali. 1919 yil 4-soni.

kasalligidan vafot etgan. Uning hayoti aynan shu qamoqda yakunlangan. Shu jihatdan uning vafoti oddiy tabiiy o‘lim sifatida emas, balki qatag‘on siyosati oqibatlari bilan bog‘liq fojeali taqdir sifatida baholanadi. Alizodaning nomi vafotidan keyin ham uzoq vaqt davomida to‘liq tiklanmagan. Manbalarga ko‘ra, 1977-yilda uning nomi oqlangan. 1987-yilda nabirasi Farhod Alizodaning sa’y-harakatlari hamda o‘zbek va tojik ziyolilarining ko‘magida uning hoki Vladimir shahridan Samarqandga olib kelingan va Panjob qabristoniga dafn etilgan[11].

XULOSA

Saidrizo Alizoda XX asr boshlaridagi Turkiston ma’rifiy va madaniy hayotida o‘ziga xos o‘rin egallagan ziyolilardan biridir. Uning faoliyati birgina yo‘nalish bilan cheklanmagan. U pedagog, jurnalist, muharrir, tarjimon va tilshunos sifatida turli sohalarda mehnat qilgan. Alizodaning jadidchilikdagi faoliyatining asosiy jihatlaridan biri ta’lim masalasiga bo‘lgan munosabatidir. U yangi usul maktablarida ta’lim berish, darsliklar yaratish va yoshlarning dunyoviy bilimlarni egallashiga sharoit yaratishga intilgan. “Ilmi hisob”, “Birinchi yil” kabi o‘quv qo‘llanmalari hamda tarix, geografiya, riyoziyot, tabiat va boshqa fanlarga oid darsliklari uning pedagogik faoliyati keng bo‘lganini ko‘rsatadi. Uning milliy matbuotdagi faoliyati ham alohida ahamiyatga ega. “Oyna”, “Hurriyat”, “Zarafshon” va boshqa nashrlarda faoliyat olib borib, jamiyatdagi muammolarni yoritgan. Ayniqsa, ta’lim, milliy o‘zlik, Vatan va ijtimoiy masalalarga oid qarashlari uning publitsistik merosida muhim o‘rin egallaydi. Alizodaning tarjimonlik faoliyati ham uning ilmiy-adabiy merosining katta qismini tashkil qiladi. U Pushkin, Tolstoy, Mopassan, Qodiriy kabi adiblarning asarlarini tarjima qilgan, shuningdek, Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalarining asarlarini boshqa tillarga o‘girgan. Shu bilan birga, uning 61 ming so‘zli ikki jildlik ruscha-tojikcha lug‘ati tilshunoslik sohasidagi faoliyatining muhim namunalaridan biri sifatida ko‘rsatiladi. Saidrizo Alizodaning hayoti qatag‘on davrining achchiq oqibatlari bilan yakunlangan. Umuman olganda, jadidning hayoti va faoliyati Turkiston tarixidagi ma’rifatparvarlik, milliy matbuot va ta’lim rivoji bilan chambarchas bog‘liq. Uning merosini o‘rganish orqali nafaqat bir ziyolining hayot yo‘lini, balki XX asr boshlaridagi murakkab ijtimoiy-madaniy jarayonlarni ham chuqurroq anglash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Sayid R. A. “Turkiston-bizning Vatanimiz”// “Sho‘lai inqilob” jurnali, 1919 yil 4-soni.
2. Shadmanova S. Turkiston tarixi – matbuot ko‘zgusida. – T.: Yangi nashr, 2011. – B. 30.
3. “Oyna” jurnali, 1914 yil, 35-soni.
4. Саидризо А. Як сӯйиқасди ғаразкорона ба маҷаллаи мо // Шуълаи инқилоб. №2. 1919. – С.2
5. Усмонов И., Давронов Д. Таърихи журналистикаи тоҷик. – Душанбе: Маориф, 1997. – 158 с.
6. Said Z. O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar (1870–1927). – Toshkent-Samarqand: O‘zbekiston, 1927. – 36 b.
7. Do‘stqoraev B. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi: darslik. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – B. 71-78.
8. Tursunova D. Samarqand jadidchilik maktabi. – T.: Navro‘z, 2017. – B. 24.

[11] Усмонов И., Давронов Д. Таърихи журналистикаи тоҷик. – Душанбе: Маориф, 1997. – 163 с.